

QAYDNOMA №4

2022 yil 2 noyabr kuni soat 14:00 da o'tkaziladigan
ToshPTI Ilmiy Kengashining

QAROR LOYIHASI:

- Kun tartibi:**
1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta tashabbusi ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va yangi o'quv yilida bajariladigan vazifalar to'g'risida.
Ma'ruzachi: ToshPTI Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor M.A. Axmedova.
 2. Tibbiy biologiya fanlar kafedralarida o'qish jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni, interaktiv o'qitish shakllarini va usullarini joriy etilganligi holati va ularning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari haqida.
Ma'ruzachi: Tibbiy biologiya yo'nalishdagi fanlar bo'yicha fan o'quv-uslubiy kengashning raisi b.f.d., professor N.M. Yuldashev.
 3. 2021-2022 o'quv yilida talabalar malakaviy amaliyot o'tkazish xususiyatlari va yangi o'quv yilida malakaviy amaliyot o'tkazishni takomillashtirish chora-tadbirlari haqida.
Ma'ruzachi: ToshPTI Talabalar malakaviy amaliyoti bo'yicha ma'sul t.f.n., dotsent T.U. Umarov.
 4. ToshPTIda ijro intizomi holati. Fuqarolarning murojaatlarida ko'tarilgan masalalar tahlili.
Ma'ruzachi: ToshPTI Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i, t.f.d., professor SH.I. Ruziyev.
 5. Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash.
Ma'ruzachi: Saylov komissiyasi raisi.
 6. Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.
Ma'ruzachi: Ilmiy Kengash kotibi.
 7. Turli masalalar.

Ko'rib chiqildi:

Birinchi masala bo'yicha ma'ruzachi ToshPTI Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor M.A. Axmedova. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta tashabbusi ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va yangi o'quv yilida bajariladigan vazifalar to'g'risida.

1 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

ToshPTI Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor M.A. Axmedova. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta tashabbusi ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va yangi o'quv yilida bajariladigan vazifalar to'g'risida:

Besh muhim tashabbus doirasida amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarni samaradorligiga alohida e'tibor qaratilsin;

Besh muhim tashabbusning barcha yo'nalishlariga talabalar va institut professor o'qituvchilarining faol ishtiroki qamrovi oshirilsin;

Besh muhim tashabbus bo'yicha tanlavlarni ko'paytirilsin;

Besh muhim tashabbus doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlar MFY yoshlari o'rtasida ham keng ko'lamda tashkil etish kafedra PPSi va tyutorlar tomonidan yo'lga qo'yilsin.

Ikkinchi masala bo'yicha ma'ruzachi ToshPTI Tibbiy biologiya yo'nalishdagi fanlar bo'yicha fan o'quv-uslubiy kengashning raisi b.f.d., professor N.M. Yuldashev. Tibbiy biologiya fanlar kafedralarida o'qish jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni, interaktiv o'qitish shakllarini va usullarini joriy etilganligi holati va ularning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari haqida.

2 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

ToshPTI Tibbiy biologiya yo'nalishdagi fanlar bo'yicha fan o'quv-uslubiy kengashning raisi b.f.d., professor N.M. Yuldashev. Tibbiy biologiya fanlar kafedralarida o'qish jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni, interaktiv o'qitish shakllarini va usullarini joriy etilganligi holati va ularning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari haqida:

O'quv jarayonini yaxshilash maqsadida professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayoni uchun metodik ta'minotni (darsliklar, elektron qo'llanmalar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, testlar) boyitish;

Professor-o'qituvchilar va, ayniqsa yosh pedagoglarning chet tillarni bilish darajasini oshirish;

Tibbiy-biologik yo'nalishdagi barcha kafedralar o'z fanlari bo'yicha chet el o'quv adabiyotlarini tahlil qilgani holda, o'zbek tilida original o'quv adabiyotlarini ko'paytirish;

Institutda ilm-fanni rivojlantirish maqsadida eksperimental tajribalar o'tkazish uchun zamonaviy vivariy tashkil etish;

Ilmiy ishlarni subhujayraviy hamda molekulyar darajada o'tkazish uchun to'qima va hujayralarni parchalab, ulardan hujayra organellalarini ajratib olishga imkon beruvchi ultra- va refrijeratorli tsentrifugalarni sotib olish va o'rnatish;

Maqolalar, monografiyalar va tezislarni nafaqat soniga, balki sifatiga ham etiborni qaratish;

Institut imidjini ko'tarish uchun nafaqat Scopus va Web of Science ma'lumotlar bazalari, balki boshqa dunyoda umumetirof etilgan ma'lumotlar bazalari - Journal Impact Factor, Scientific Indexing Services, Index Copernicus va boshqalarni (OAK ro'yxatida jami 43 ta baza keltirilgan) ham hisobga olish zarur.

Uchinchi masala bo'yicha ma'ruzachi ToshPTI Talabalar malakaviy amaliyoti bo'yicha ma'sul t.f.n., dotsent T.U.Umarov. 2021-2022 o'quv yilida talabalar

malakaviy amaliyot o'tkazish xususiyatlari va yangi o'quv yilida malakaviy amaliyot o'tkazishni takomillashtirish chora-tadbirlari haqida.

3 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

ToshPTI Talabalar malakaviy amaliyoti bo'yicha ma'sul t.f.n., dotsent T.U. Umarov. 2021-2022 o'quv yilida talabalar malakaviy amaliyot o'tkazish xususiyatlari va yangi o'quv yilida malakaviy amaliyot o'tkazishni takomillashtirish chora-tadbirlari haqida:

Talabalarga nazariy mashg'ulotlar vaqtida mavzuga mos amaliy ko'nikmalarni berish, ularni tanishtirish, e'lonlar taxtasiga osib qo'yish;

Amaliy ko'nikmalarni mashg'ulot vaqtida qadamma-qadam bajarilishini tushuntirish va ko'rsatish;

Talabalarning mustaqil ishiga ko'proq amaliy ko'nikmalarni berish va ularni o'zlashtirishiga erishish.

Turtinchi masala bo'yicha ma'ruzachi JYSHM bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi t.f.d., professor SH.I. Ruziyev. ToshPTIda ijro intizomi holati. Fuqarolarning murojaatlarida ko'tarilgan masalalar tahlili.

4 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

JYSHM bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi t.f.d., professor SH.I. Ruziyev. ToshPTIda ijro intizomi holati. Fuqarolarning murojaatlarida ko'tarilgan masalalar tahlili axborot va ijro uchun qabul qilindi.

Beshinchi masala bo'yicha masala bo'yicha ma'ruzachi Saylov komissiyasi raisi SH.I. Ruziyev "Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash" natijalari to'g'risida hisobot berib o'tdilar.

5 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

Saylov komissiyasi raisi SH.I. Ruziyev "Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash" natijalari to'g'risida hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Oltinchi masala bo'yicha ma'ruzachi ToshPTI Ilmiy Kengash kotibi tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o'quv qo'llanma va uslubiy tavsiyanomalarni o'qib eshittirdi. Ularning muhokamasi bo'lib o'tdi.

6 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

ToshPTI Ilmiy Kengash a'zolari tomonidan tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o'quv qo'llanma, monografiya va uslubiy tavsiyanomalar ovozga qo'yildi va bir ovozdan keyingi bosqichga tavsiya etildi.

7. Turli masalalar.

Kengash raisi
t.f.d., professor:



B.T. Daminov

Kengash kotibi
t.f.d., dotsent:

J.B. Sattarov